



XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ROLINI MUSTAHKAMLASH MUAMMOLARI

Ibroximova Madina Qaxramonovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy

Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro munosabatlar tizimida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ahamiyati, bugungi kundagi mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan masalalar yoritilgan. BMT xalqaro maydonda xavfsizlik va tinchlikni ta'minlaydigan asosiy mexanizmdir.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabatlar tizimi, xalqaro tashkilot, BMT Ustavi, Barqaror rivojlanish maqsadlari, xavfsizlik masalalari.

KIRISH

“Birlashgan Millatlar” atamasi Amerika Qo'shma Shtatlar Prezidenti Franklin D. Ruzvelt tomonidan taklif etilib, 1942-yilning 1-yanvaridagi “Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasi”da ilk bor ishlatilgan. Ushbu tashkilotning Nizomi San-Fransisko shahrida 1945-yilning 25-aprelidan 25-iyunigacha davom etgan 50 mamlakat vakillari ishtirokidagi Xalqaro tashkilot tuzish yuzasidan o'tkazilgan. Konferensiyada ishlab chiqildi.¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasman 1945-yilning 24-oktabridan o'z faoliyatini yurita boshlagan bo'lib, ushbu kun hozirga qadar BMTning tashkil etilgan kuni sifatida

¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Asosiy omillar, 2001



nishonlanib kelinmoqda. Mamlakatimiz 2015 – yil sentabr oyida BMTga a'zo bo'lgan boshqa davlatlar kabi 17 ta dunyoni o'zgartirishga yo'naltirilgan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) ni ma'qullagan.

BMTning maqsad va tamoyillari uning Nizomida bayon qilingan bo'lib ular:

- Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlaydi;
- Teng huquqlilik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida xalqlarning o'zlari belgilaganidek millatlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni rivojlantiradi;
- Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insonparvarlik xarakteridagi xalqaro muammolarni hamkorlikda hal qilishni amalga oshiradi, inson huquqlari hamda asosan uning erkinligiga hurmatni rag'batlantiradi;
- Millatlarning ushbu umumiy maqsadlarga erishuvida hamkorlikdagi harakatlarning markazida bo'ladi.²

BMT a'zoliciga yangi davlatlar Xavfsizlik Kengashining taklifiga asosan Bosh Assambleya tomonidan qabul qilinadi va hozirga qadar ular 193 nafarga yetgan.

BMT Bosh Kotibi Antonio Guterresh 2024-yil 8-fevral kuni bo'lib o'tgan press-konferensiyadagi nutqida 2024-yil duch kelgan muammolar haqida gapirib o'tib shunday dedi: “Barcha muammolar bir-biridan umumiy rishta bilan bog'langan. Tinchlik!”. Nutqi davomida u – “Tinchlik va xavfsizlikdagi muammolarda biz konfliktlarning oshishi hamda geosiyosiy bo'linishlar bilan yuzlashdik. Jamiyatlar bilan bog'liq tinchlik muammolarida – biz qutblashishni kuzatdik, shuningdek adolat bilan aloqador bo'lgan muammolarda tengsizlikni, tabiat bilan bog'liq hollarda esa iqlim o'zgarishi, havo ifloslanishi va global haroratning ko'tarilayotganini guvohi bo'ldik” deya fikr bildirdi.³ Nizomga muvofiq BMTning rasmiy tili – ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari hisoblanadi. Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy hamda Ijtimoiy Kengash tomonidan arab tili ham rasmiy til sifatida qabul qilingan.

² Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi


³ Unric.org. UN: The main challenges and key dates in 2024.



Tashkilot Nizom bilan tasdiqlangan olti bosh organdan iborat:

- 1) Bosh Assambleya
- 2) Xavfsizlik Kengashi
- 3) Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash
- 4) Vasiylik Kengashi
- 5) Xalqaro Sud
- 6) Kotibiyat

Shuningdek, u 15 muassasa va bir qancha dastur, organlarni o'z ichiga oladi.



ASOSIY MUAMMOLAR

1. Homiylik va resurslar bilan bog'liq cheklov muammolari – tashkilot butunlay a'zo davlatlarning kontributsiyalariga tayanib qolgan. Ularning kamayishi tashkilot zimmasida bo'lgan muhim funksiyalarning bajarilmasligiga jumladan, tinchlikni saqlashga qaratilgan operatsiyalar, insonparvarlik yordami va loyihalarning taraqqiyoti uchun to'siq bo'lmoqda.



2. Konfliktlarga barham berish yoki ularga alternativ yechimlar topishga bo'lgan qobiliyatsizlik – ba'zi bahslarga qo'yilgan yechimlar samarasizlik bilan yakunlangan. Shu bilan birgalikda, Suriya, Liviya, Janubiy Sudan, Yaman va Myanmadagi nizolarda ham o'z yechimini topishida muvaffaqiyatsizliklarga uchragan.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi yagona universal xalqaro tashkilot hisoblanadi, shu bilan birgalikda, u o'zida juda ham ko'p bo'lgan vazifalarni, turli sohalardagi yirik muammolarni va rivojlanishga qaratilgan loyihalarni keng qamrab olgan. Ushbu faktor ham bevosita uning taraqqiyoti uchun ta'sir qilmay qo'ymaydi, albattta.
4. A'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy bo'linishlar.
5. Iqlim o'zgarishi va ekologiyadagi muammolar.
6. Pandemiylar va sog'liqni saqlashdagi muammolar.

XULOSA

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishining eng muhim ehtiyojlaridan biri va uning vakolatining asosiy mohiyati – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdir

Birinchi prezidentimizning asarlarida qayd qilinganidek, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'liq mutlaqo yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek yangi tahdidlarning paydo bo'lishi, BMT tuzilmalarini, birinchi navbatda, uning yetakchi organi - Xavfsizlik Kengashini isloh qilish va tarkibini qayta ko'rib chiqishni tezlashtirishni taqozo etmoqda.⁴

Haqiqatdan ham, BMT faoliyatida ko'zga tashlanib turayotgan tuzilma bilan bog'liq muammolar, bu tashkilotga davrga mos bo'lgan yangicha yondashuvlar yetishmayotganidan, shuningdek, ushbu tizim bir qator modernizatsion jarayonlarni amalga oshirishi kerakligidan dalolat beradi, aslida.

⁴ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T., 2005.-B.198-199



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Asosiy omillar, 2001
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi
3. Unric.org. UN: The main challenges and key dates in 2024.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T., 2005.-B.198-199